BUDJETNI JAMOATCHILIK FIKRI ASOSIDA SHAKLLANTIRISH: JAHON AMALIYOTI VA MAMLAKATIMIZDA YARATILGAN TIZIM

Muslimov Komoliddin G'iyos o'g'li
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Iqtisodiy xavfsizlik ta'lim yo'nalishi magistranti


"Endilikda, mahalla infratuzilmasi uchun mablag'lar faqatgina tashabbusli budjet orqali aholi istagan loyihalarga ajratiladi"

Sh.M.Mirziyoyev

Davlat budjetining shakllanishi va hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish loyihalarini ishlab chiqish jarayonlarida aholining faol ishtiroki, joylardagi dolzarb muammolarni yaqqon namoyon etib, ularni qisqa muddatlarda bartaraf etishga xizmat qilmoqda.

So'nggi yillarda odamlarni chindan ham o'z ovozining ahamiyatiga ishontira olgan, daxldorlik hissini uyg'otib, ularni bir maqsad yo'lida birlashtira olgan loyiha bu - Tashabbusli budjet loyihasidir.

Mazkur loyiha O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 13 apreldagi PQ-5072-son qaroriga asosan 2021 yildan boshlab tashkil etilib, kun sayin ommalashib bormoqda. Xususan, loyiha doirasida 2021 yilda **42,2 ming**dan ortiq takliflar kelib tushgan bo'lsa, ushbu ko'rsatkich 2022 yilga kelib **3 barobarga** ortib, **131 330 ta**ni tashkil etdi. Iqtisodiyot va moliya vazirligi ma'lumotiga ko'ra, shu kungacha **12,2 mln** odamni qamrab oldi (ovoz berish jarayonida ishtirok etgan).



Shunga mutanosib ravishda 2022 yilda loyihalar uchun ajratilgan mablag'lar miqdori **4,7 barobarga ortib, 2,5 trln.so'mga** (tuman va shahar budjetlari 5 foizi hisobidan 1,5 trln so'm hamda qo'shimcha mablag'larning kamida 30% qismi hisobidan 555 mlrd so'm)ga yetdi.

Bunda, 2021-2022 yillarda o'tkazilgan Tashabbusli budjet jarayonlarida fuqarolarning ishtirokini qo'llab-quvvatlash maqsadida, istisno tariqasida respublika budjetidan tuman va shahar budjetlariga qo'shimcha **630,1 mlrd so'm** mablag'lar yo'naltirildi.

Loyihaning samaradorligidan kelib chiqib, jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan loyihalarni moliyalashtirish ko'lamini yanada kengaytirish uchun

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 25 oktyabrdagi PQ-409-son qarori bilan, 2023 yilda tashabbusli budjet jarayonlariga **8 trln.so’mdan ortiq** (2022 yilga nisbatan **3,2 barobar ko’p**) mablag’ yo’naltirilishi rejalashtirildi. Buning e’tiborli jihati shundaki, 2023 yildan boshlab “Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlari jamoatchilik fikri asosida “Ochiq budjet” axborot portali orqali ovoz berish yo’li bilan aniqlanib, har bir mahalla qiymati **8 mlrd so’mgacha** loyihalar paketi bilan ovoz berish jarayonida ishtirok etish imkoniyati yaratildi.

Budjet mablag’larini hudud va sohalarga taqsimlanishida ustuvor yo’nalishlarni aniqlash, budjet jarayoni ishtirokchilari oldida turgan eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Odatda, ushbu masalalar bilan turli darajadagi hokimiyat vakillari, deputatlar shug’ullanadi hamda fuqarolar manfaatlarini ifoda etadi. Biroq, qonun chiqaruvchilar e’tiboridan chetda qoladigan mahalliy muammolar ham mavjud bo’lib, aynan Tashabbusli budjet loyihasi ushbu muammoli holatlarni umumiy muhokamaga olib chiqish, uni hal qilishning maqbul variantini topishga imkon beradi.

Tajriba shuni ko’rsatmoqdaki, har bir joy o’ziga xos xususiyat va ustuvorlikka ega bo’lib, odamlar o’zlarining yashash joylarining aksariyat muammolarini yaxshi bilishadi va fuqarolarning tanlovi ko’pincha hokimiyat qaroridan ko’ra asoslangan hisoblanadi. Faqat ma’lum bir joyda yashabgina, birinchi navbatda qanday masalalarni hal qilish kerakligini "ich-ichidan" tushunish mumkinligi ko’pchilik yaxshi tushunadi.

Tashabbusli budjet loyihasini amalga oshirishning eng muhim natijasi nafaqat infratuzilmani rivojlantirish masalalarini hal qilish, balki aholi punktlarida ijtimoiy va inson kapitalini rivojlantirish hamda fuqarolar mas’uliyatini yanada oshirishning eng muhim shartlaridandir.

Budjet jarayonida bevosita ishtirok etish orqali fuqarolar ijtimoiy o’zgarishlarning ishtirokchisiga aylanadi hamda ijtimoiy kapitalning eng muhim tarkibiy qismlari: ijtimoiy aloqa va o’zaro ishonchni shakllantirishadi. Bunda ishonch nafaqat turli xil fuqarolar o’rtasida, balki fuqarolar va mahalliy hokimlik vakillari o’rtasida ham paydo bo’lib, provardida aholining ehtiyojlarini tarmoqlar kesimida yoki shikoyatlar shaklida emas, balki asosli **konstruktiv takliflar** shaklida ko’rish imkonini beradi.

Albatta bular, Loyihani yaratish tartibining maksimal shaffofligi va uni amalga oshirish jarayonida haqiqiy jamoatchilik nazorati tizimi yo’lga qo’yilishi bilan bog’liq bo’lib, yakunda korrupsiya omillarini minimallashtirish va barcha bosqichlarda jamoatchilik nazoratini amalga oshirishga xizmat qiladi hamda fuqarolarda boqimandalik kayfiyatining pasayishida eng muhim omillardan biri bo’lib xizmat qiladi.

Bunda, ijtimoiy o’zgarishlar bilan bir qatorda, loyihalarning iqtisodiy samaradorlik darajasi ham ortib boradi, ya’ni loyihalar qiymatini pasaytirish, budjet mablag’larini sarflash samaradorligini oshiradi hamda jamoatchilik tomonidan

berilgan imkoniyatdan maksimal darajada foydalanish orqali mablag'larni tejamli, ammo samarali sarflashga harakat qilinadi.

Shuningdek, fuqarolarda "Davlatniki - demak hech kimga tegishli emas" degan munosabatdan voz kechilib, mulkiy munosabat bilan almashtiriladi va buzg'unchilikni minimallashtiradi. Misol uchun, jahon tajribasida fuqarolar o'zlari amalga oshirgan loyihalar butligini ta'minlash uchun **jamoat patrulini** tashkil etish holatlari mavjud.

Jahon tajribasida shu kabi tizimli loyihalar, **partisipator budjetlashtirishning** bir shakli sifatida namoyon bo'lib, mahalliy ahamiyatdagi masalalarni budjetni jamoatchilik fikri asosida shakllantirishga asoslangan holda budjet mablag'larini sarflash obyektlarini aniqlash va tanlashda, shuningdek tanlangan loyihalarning amalga oshirilishini bevosita fuqarolar ishtirokida nazorat qilish orqali hal qilishning turli amaliyotlari jamlanmasi bo'lib, aholi punktlarini rivojlantirish yo'llarini belgilashdagi global tendensiyaning bir qismi hisoblanadi.

Har bir mamlakatda fuqarolarni jalb etish turli yo'llar bilan amalga oshiriladi, ammo hamma joyda **asosiy maqsad fuqarolarning budjet mablag'larini sarflash bo'yicha qaror qabul qilish jarayonida faol ishtirok etishidir**. Shu maqsadda, butun dunyoda bugungi kunda 7 000 dan ortiq turli amaliyotlar mavjud bo'lib, mazkur tajriba dastlab Lotin Amerikasi va Yevropaning yirik **shaharlarida joriy etilgan bo'lsa, Janubi - Sharqiy Osiyo mamlakatlarida esa qishloq joylariga xos hisoblanadi**.

Bugungi kunda, Rossiya davlati yetakchilar qatoriga kirib, budjet qarorlarining turli-tuman amaliyotlarini birlashtiruvchi brend sifatida "Tashabbusli budjetlashtirish"ni qabul qilgan. Bunda, fuqarolarning budjet qarorlarida ishtirok etishga oid **250 dan** ortiq amaliyotlari joriy etilib, deyarli barcha hududlarda - respublika, o'lka va viloyatlarida amal qiladi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, birgina 2019 yilda umumiy qiymati **24 milliard rubl**dan ortiq **22 mingta** loyiha amalga oshirilib, unda rossiyaliklarning uchdan bir qismi ishtirok etgan.

Yuqorida qayd etilganidek, turli mamlakatlarda amaliyotlar o'ziga xos xususiyatlarga ega. Misol uchun **Italiya** va **Fransiya davlatlarida** alohida munitsipalitetlar va hududlarda mahalliylashtirilgan bo'lib, milliy darajada taqdim etilmagan, ya'ni **Toskana** (Italiya) hududida noyob institutsional muhit shakllanib, qonunchilik bazasi va fuqarolarni ushbu jarayondagi ishtirokini jalb qilishga ko'maklashuvchi **maxsus organ** tashkil etilgan bo'lsa, **Milanda** budjet qarorlariga bilimli fuqarolar (ekspertlar)ni jalb qilish amaliyoti joriy etilgan.

Xuddi shundan, **Xitoy Xalq Respublikasining Chendu provinsiyasi**da fuqarolarni qishloq infratuzilmasini rivojlantirishga jalb qilish borasidagi tajribasi diqqatga sazovor.

Hududlarda joriy etilgan amaliyotlar kabi, mentalitet, geografik joylashuvlar, fuqarolar qatlami va boshqa omillar hisobiga ularni amalga oshirishda turli mexanizmalardan foydalaniladi. Masalan, mamlakatimizda iqtisodiy va texnik

ekspertizadan o’tgan loyihalar “Ochiq budjet” portaliga joylashtirilib, onlayn ovoz berish yo’li bilan amalga oshirilsa, ba’zi davlatlarda g’oyalarni jamlagan holda ularni amalga oshirilishidan manfaatdor bo’lgan fuqarolar qatlami ko’p to’planadigan joylarda turli aksiyalar (**Bo’ston**) yoki maxsus saylov uchastkalarini tashkil etish (**Polshaning Sopot shahri**), aholi tarqoq joylashgan hududlarda onlayn tartibda (**aksariyat mamlakatlarda**) yoki ko’chma ovoz berish punktlari (**Braziliyaning Belo-Orizonti**)ni tashkil etish orqali amalga oshiriladi.

Ya’na bir muhim masala, bu loyihalar uchun budjetdan taqsimlanayotgan mablag’lar qiymati (yoki ulushi) hisoblanadi. Chunki, partisipator budjetlashtirishning asosiy yo’nalishi mahalliy ahamiyatga ega bo’lgan muammolarni hal etishga qaratilganligi sababli, ularning qiymati investitsiya loyihalari qiymatidan sezilarli darajada past.

Xalqaro ekspertlar fikriga ko’ra, budjetdan bir kishiga ajratiladigan mablag’ miqdori **10 yevroga** teng bo’lganida, fuqarolarni budjet qarorlariga jalb qilish amaliyotining ta’siri barqaror bo’ladi. Jahon amaliyotida ushbu ko’rsatkich **1 yevrodan** (yoki undan past) **150 yevrogacha** o’zgarib turadi.

Misol uchun, bugungi kunda yetakchilar qatoridagi Rossiyada tashabbusli budjetlashtirish loyihalari budjetlarining **60 foizga** yaqini subsidiya shaklida ajratilgan mintaqaviy mablag’lar hisoblanib, mahalliy muammolarni hal qilish uchun ajratilgan federal budjet mablag’lari **15 foizni** tashkil etadi hamda davlat mablag’lari bilan bir qatorda mablag’lar munitsipalitetlardan (loyihalar narxining 15 foizigacha), fuqarolar va korxonalardan (10 foizgacha) jalb qilinadi.

Mamlakatimizda esa, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 25 oktyabrdagi PQ-409-son qaroriga asosan, 2023 yilda tashabbusli budjet jarayonlari uchun tuman va shahar budjetlarining 5 foizi miqdorida, biroq kamida **6 mlrd.so’m**, “Mening yo’lim” loyihasi uchun tuman va shaharda **1,5 mlrd so’mdan** kam bo’lmagan miqdorda hamda tuman va shahar budjetlari qo’shimcha tarzda viloyat budjeti qo’shimcha mablag’larining **30 foizi**ni yo’naltirish belgilangan.

T/r	**Yo’nalish nomi**	**2022 yil**	**2023 yil loyiha**
JAMI		**2 653**	**8 062**
1	**Tashabbusli budjet jarayoni doirasida**	**2 508**	**3 742**
	Tuman va shahar budjetlarining 5 foizi	1 538	2 046
	Tuman va shahar budjetlari qo’shimcha manbalarining kamida 30 foizi	550	550
	Qoraqalpog’iston Respublikasining respublika budjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjeti qo’shimcha mablag’larining kamida 30 foizi		1146

	1 va 2 mavsumlarda 2 mingtadan ko’p ovoz olib g’olib bo’la olmagan loyihalarni moliyalashtirish uchun qo’shimcha ajratilishi kutilayotgan mablag’lar	420	
2	**"Obod qishloq" va "Obod mahalla" dasturi**		**4 000**
3	**"Mening yo’lim" loyihasi doirasida**	**145**	**320**
	Tuman va shahar budjetlarida ichki yo’llarni ta’mirlash uchun ajratilgan mablag’larning kamida 50 foizi	145	320

Bugun shiddat bilan o’zgarib borayotgan jamiyatimizning siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarida, shuningdek fuqarolar hayotida yangi imkoniyatlar va qadriyatlar shakllanayotgan bir davrda, shu kabi loyihalarning o’rni va ahamiyati juda muhimdir. To’g’ri, mazkur loyiha bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlarda ko’plab baxs va munozaralarga sabab bo’lmoqda. Lekin bu, shu kabi loyihalarni to’xtatish yoki bunday amaliyotlardan voz kechish kerak degani emas, balki uni jahon tajribasi va ichki imkoniyatlar, jumladan hududlar va sohalarning o’ziga xos hususiyatlaridan kelib chiqqan holda yanada takomillashtirish kerakligidan darak beradi.

Xususan, **mahalliy yoki tematik** (atrof- muhit muhofazasi, sog’liqni saqlash, ta’lim, fan, madaniyat, bandlik kabi) **ahamiyatga ega muammolarni hal etishga qaratilgan amaliyotlarni kengaytirish** hamda loyihalar uchun ovoz berish jarayonlarining shaffofligini ta’minlagan holda mavjud imkoniyatlar doirasida fuqarolar uchun yanada qulay shakllarini ishlab chiqish shular jumlasidandir.

Shu bilan birga, ushbu yo’nalishda aholini qiynab kelayotgan ko’plab savollar, respublikada joriy etilgan amaliyot, mexanizm va shakllar bo’yicha ularga amaliy - uslubik ko’mak ko’rsatish uchun **onlayn rejimda maslahat berish** tizimini kuchaytirish juda muhim.

Joriy yildan boshlab **“Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlarini** jamoatchilik fikri asosida shakllantirish amaliyotini, kelgusida **hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo’yicha Hukumat tomonidan** qabul qilinadigan qarorlarga ham joriy etilishi, jamoatchilik nazoratida aholining faol ishtirokini ta’minlab, ularning ehtiyojini **konstruktiv takliflar shaklida ko’rish imkoniyatini yaratadi** hamda islohotlar avvalo inson manfaatlari uchun xizmat ko’rsatishining yorqin dalili sifatida namoyon bo’ladi.